O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3430-2
2026 - yil 12 - Noyabr

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

Dori vositalarini retsept bilan va retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga kiritish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga oʻzgartirishlar kiritish haqida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-sentabrdagi 570-son “Sogʻliqni saqlash tizimini raqamlashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi hamda 2025-yil 24-noyabrdagi 738-son “Dori vositalarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi hamda Tibbiy jihozlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qarorlariga muvofiq buyuraman:

1. Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vazirining 2023-yil 29-apreldagi 10-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 3430, 2023-yil 4-may) (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 05.05.2023-y., 10/23/3430/0253-son) bilan tasdiqlangan Dori vositalarini retsept bilan va retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga kiritish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga ilovaga muvofiq oʻzgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish boʻyicha vakil, Oʻzbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy oʻtgach kuchga kiradi.

Ushbu buyruqqa ilovaning 1-bandi beshinchi xatboshisi 2027-yil 13-yanvardan kuchga kiradi.

Vazir
22-Oktabr 2026-yil
30 son

ADILOV ELDAR
ERKINOVICH

Kelishildi:

Tadbirkorlarning huquqlarini
himoya qilish boʻyicha vakil
15-Oktabr 2026-yil

BURIYEV ABDUMANNOP
ABDURAXMATOVICH

Rais
07-Oktabr 2026-yil

VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

Rais
06-Oktabr 2026-yil

TURAXUJAYEV HALILILLO
SOBIRJONOVICH

O‘zbekiston Respublikasi
sog‘liqni saqlash vazirining
2026-yil 22-oktabrdagi 30-son buyrug‘iga
ILOVA

Dori vositalarini retsept bilan va retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga kiritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. 3 va 4-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Dori vositalarini retsept bilan yoki retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga kiritish dori vositasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish va ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddatini uzaytirish jarayonida amalga oshiriladi.

Bunda, ariza beruvchi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar ro‘yxati va ularni ko‘rib chiqish muddatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-noyabrdagi 738-son qarori bilan tasdiqlangan Dori vositalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq belgilanadi.

4. Vakolatli organ tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq bo‘lgan dori vositalari retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga kiritiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 26-iyundagi 337-son “O‘zbekiston Respublikasida prekursorlarning muomalasi bilan bog‘liq faoliyatni tartibga solish va uzluksiz nazoratni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan respublikada muomalasi cheklangan prekursorlar ro‘yxatiga kirmaydigan dori vositalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 2-iyuldagi 359-son “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar muomalasini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida muomalada bo‘lishi cheklangan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ro‘yxatlariga kirmaydigan dori vositalari;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentabrdagi 818-son qarori bilan tasdiqlangan Kuchli ta’sir qiluvchi moddalar ro‘yxatida mavjud bo‘lgan moddalarni tarkibida saqlamagan dori vositalari;

ruhiy va jismoniy qaramlikni keltirib chiqarmaydigan dori vositalari;

tibbiy xodimning doimiy kuzatuvisiz qo‘llanilganda inson organizmiga bevosita yoki bilvosita xavf tug‘dirmaydigan, shuningdek reproduktiv toksiklik, genotoksiklik va kanserogenlik xususiyatlariga ega bo‘lmagan dori vositalari;

uzoq muddat qo‘llanilganida kumulyativ xususiyatlarga ega bo‘lmagan dori vositalari

tarkibida farmakologik ta’sir yoki nojo‘ya reaksiyalar sababli qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazishni talab qiladigan faol moddalarni saqlamaydigan dori vositalari;

dori shakli, qo‘llash usullari, bir martalik va sutkalik dozasi, konsentrasiyasi, qadoq hajmi va qo‘llash davomiyligi tibbiy nazoratsiz xavfsiz foydalanish imkonini beradigan, parenteral yoki davolash-profilaktika muassasalarida qo‘llashga mo‘ljallanmagan dori vositalari;

iste’molchi tomonidan belgilari oson aniqlanadigan yengil kasalliklar yoki simptomlarni qisqa muddat davomida mustaqil davolash uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan dori vositalari;

noto‘g‘ri qo‘llash, dozani oshirish, uzoq qabul qilish yoki tibbiy ko‘rsatmadan tashqari ishlatish ehtimoli past va bunday qo‘llash jiddiy xavf tug‘dirmaydigan dori vositalari;

tibbiyotda qo‘llanilishiga doir yo‘riqnomada mustaqil va xavfsiz qo‘llash uchun zarur ma’lumotlar aniq, to‘liq va iste’molchi uchun tushunarli ko‘rsatilgan dori vositalari;

farmakologik nazorat va postmarketing nazorati natijalariga ko‘ra dori vositasini tibbiy nazoratsiz qo‘llashda jiddiy xavf tug‘diradigan nojo‘ya reaksiyalar, suiiste’mol qilish holatlari yoki foyda–xavf nisbatining salbiy o‘zgarishi aniqlanmagan dori vositalari;

dori vositasining Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ro‘yxatiga kiritilgan tartibga soluvchi organlar (WHO Listed Authorities) yoki Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining Global taqqoslash vositasi (Global Benchmarking Tool) bo‘yicha 4-darajali darajali yetuklikka ega bo‘lgan tartibga soluvchi organlar tomonidan retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga kiritilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.”.

2. 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Har biri alohida retseptsiz beriladigan dori vositasi bo‘lgan ikkita va undan ortiq ta’sir etuvchi moddalar majmuasidan tarkib topgan dori vositalari

mazkur Nizomning 4-bandida belgilangan mezonlarga hamda quyidagi shartlarga muvofiq bo‘lganda retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga kiritilishi mumkin:

agar har bir faol modda dori vositasining ko‘rsatilgan terapevtik ta’siriga o‘z hissasini qo‘shsa;

faol moddalar kombinatsiyasining foyda–xavf nisbati ijobiy bo‘lsa;

dori vositasi qo‘llanilishi mo‘ljallangan bemorlar guruhi uchun faol moddalarni birgalikda qo‘llash tegishli klinik va ilmiy ma’lumotlar bilan asoslangan bo‘lsa;

dori vositasining o‘zaro ta’siri, dozani oshirib yuborish, noto‘g‘ri qo‘llash va suiiste’mol qilish xavflari pastligi klinik jihatdan isbotlangan bo‘lsa.”.

3. 10-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Ariza beruvchining dori vositalarini retsept bilan beriladigan toifadan retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga o‘zgartirish bo‘yicha murojaati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-noyabrdagi 738-son qarori bilan tasdiqlangan Dori vositalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq vakolatli organ tomonidan ko‘rib chiqiladi.”.

4. 12-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar mazkur Nizomning 4-bandida belgilangan mezonlarga, ikkita va undan ortiq ta’sir etuvchi moddalar majmuasidan tarkib topgan dori vositalari bo‘yicha esa qo‘shimcha ravishda mazkur Nizomning 6-bandida belgilangan shartlarga muvofiq bo‘lmagan taqdirda, dori vositasini retsept bilan beriladigan toifadan retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga o‘tkazish rad etiladi.”.

5. 14-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“14. Dori vositasini retsept bilan beriladigan toifadan retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga o‘tkazish rad etilgan taqdirda, rad etish uchun asos bo‘lgan holatlar bartaraf etilganda yoki dori vositasining xavfsizligi va samaradorligiga oid yangi ma’lumotlar mavjud bo‘lganda, ariza beruvchi takroran murojaat qilishga haqli.

Dori vositasining xavfsizligi yoki samaradorligiga oid yangi ma’lumotlar aniqlanganda, farmakonazorat va postmarketing nazorati natijalariga ko‘ra yoxud qonunchilikdagi o‘zgarishlar munosabati bilan vakolatli organ o‘z tashabbusiga ko‘ra dori vositasining retsept bilan yoki retseptsiz beriladigan toifasini mazkur

Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan qayta ko‘rib chiqishi mumkin.”.